



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-noyabr***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da




2024- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 505 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 405 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati **109,1** % ni tashkil qildi.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 23 293,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 109,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 913,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 123,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 21 380,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 472,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon Viloyati	23 293,1	109,1
Andijon sh.	6 482,6	109,3
Xonobod sh.	173,5	114,8
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	1 454,4	105,3
Andijon	1 844,6	110,2
Baliqchi	1 900,5	110,3
Bo'ston	330,7	109,2
Buloqboshi	513,3	112,8
Jalaquduq	500,2	106,7
Izboskan	704,6	114,1
Ulug'nor	359,7	108,6
Qo'rg'ontepa	915,4	110,5
Asaka	1 991,1	111,1
Marhamat	762,2	108,8
Shahrixon	2 230,2	109,1
Paxtaobod	827,3	105,5
Xo'jaobod	1 151,9	104,1

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,3 %), Xonobod shahri (14,8 %), Izboskan (14,1 %), Buloqboshi (12,8 %), Asaka (11,1 %), Qo'rg'ontepa (10,5 %) va Baliqchi (10,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ulushi, foizda



Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 27,8 % bilan 6 482,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 173,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm


Andijon sh.	6 482,6
Shahrixon	2 230,2
Asaka	1 991,1
Baliqchi	1 900,5
Andijon	1 844,6
Oltinko'1	1 454,4
Xo'jaobod	1 151,9
Qo'rg'ontepa	915,4
Paxtaobod	827,3
Marhamat	762,2
Izboskan	704,6
Buloqboshi	513,3
Jalaquduq	500,2
Ulug'nor	359,7
Bo'ston	330,7
Xonobod sh.	173,5






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 21 380,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 8,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,8 % ni tashkil etdi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 23,2 % ga o'sdi va 1 913,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,2 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Andijon sh.	16,2	83,8
Xonobod sh.	8,6	91,4
Oltinko'l	2,3	97,7
Andijon	6,3	93,7
Baliqchi	3,9	96,1
Bo'ston	5,0	95,0
Buloqboshi	2,1	97,9
Jalaquduq	6,2	93,8
Izboskan	9,1	90,9
Ulug'nor	0,9	99,1
Qo'rg'ontepa	1,0	99,0
Asaka	5,0	95,0
Marhamat	1,9	98,1
Shahrixon	1,5	98,5
Paxtaobod	3,7	96,3
Xo'jaobod	2,8	97,2


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,1 %), Qo'rg'ontepa (99,0 %), Shahrixon (98,5 %), Marhamat (98,1 %) va Buloqboshi (97,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (16,2 %), Xonobod shahri (8,6 %) Izboskan (9,1 %) va Andijon (6,3 %) tumanlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



Andijon sh.	13 355,1	Marhamat	4 060,8
Xonobod sh.	3 763,0	Shahrixon	6 820,3
Oltinko'l	7 536,0	Paxtaobod	3 935,8
Andijon	6 391,5	Xo'jaobod	9 527,6
Baliqchi	8 741,9		
Bo'ston	4 207,4		
Buloqboshi	3 328,7		
Jalaquduq	2 499,7		
Izboskan	2 739,6		
Ulug'nor	5 619,8		
Qo'rg'ontepa	3 947,5		
Asaka	5 566,3		

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 810,8 ming. so'm (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan (106,9 %) ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (13 355,1 ming so'm), Xo'jaobod (9 527,6 ming so'm) va Baliqchi (8 741,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-noyabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 472,8	113,6
Andijon sh.	811,0	118,5
Xonobod sh.	15,4	210,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	64,7	135,4
Andijon	80,9	95,4
Baliqchi	184,6	102,5
Bo'ston	40,4	153,6
Buloqboshi	133,4	129,4
Jalaquduq	99,8	102,9
Izboskan	52,7	130,4
Ulug'nor	98,3	99,3
Qo'rg'ontepa	248,1	121,3
Asaka	453,8	144,6
Marhamat	182,2	109,3
Shahrixon	651,5	105,2
Paxtaobod	232,7	89,8
Xo'jaobod	123,4	100,1


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-noyabr)















Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-noyabr)



Andijon viloyati bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 472,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 113,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 566,7 mlrd. so'mni (119,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 906,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (125,9 %).












2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 566,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (613,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>613,5 mlrd. so'm</p>  <p>39,2 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>388,1 mlrd. so'm</p>  <p>24,8 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>176,0 mlrd. so'm</p>  <p>11,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>51,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>77,8 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>54,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>59,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>35,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</p> <p>9,9 mlrd. so'm</p>  <p>0,6 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>32,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>23,6 mlrd. so'm</p>  <p>1,5 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>43,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 906,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 596,0 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 283,0 mlrd. so'mni, otlar – 16,7 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 10,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>984,6 mlrd. so'm</p>  <p>51,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>228,3 mlrd. so'm</p>  <p>12,0 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>383,1 mlrd. so'm</p>  <p>20,1%</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>276,9 mlrd. so'm</p>  <p>14,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>16,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>6,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>7,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyonlar</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,03 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,02%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 246 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 244 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	10 999,8	113,1
Andijon sh.	199,7	109,0
Xonobod sh.	3,9	107,8
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	20,4	110,4
Andijon	31,6	108,0
Baliqchi	5,4	109,1
Bo'ston	2,3	109,2
Buloqboshi	4,2	109,0
Jalaquduq	5,5	107,8
Izboskan	13,4	110,2
Ulug'nor	6,4	109,3
Qo'rg'ontepa	19,1	109,4
Asaka	18,1	109,5
Marhamat	10,0	108,8
Shahrixon	59,0	127,5
Paxtaobod	14,3	108,7
Xo'jaobod	8,7	109,5

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 999,8 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Andijon viloyati	5 852,3	100,0
Andijon sh.	4 021,4	68,7
Xonobod sh.	0,74	0,01
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	489,8	8,4
Andijon	144,2	2,5
Baliqchi	22,6	0,4
Bo'ston	0,83	0,01
Buloqboshi	0,8	0,01
Jalaquduq	2,2	0,04
Izboskan	11,8	0,2
Ulug'nor	0,87	0,01
Qo'rg'ontepa	6,1	0,1
Asaka	536,5	9,2
Marhamat	5,6	0,1
Shahrixon	16,9	0,3
Paxtaobod	1,1	0,02
Xo'jaobod	590,9	10,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (4 021,4 mlrd. so'm), Xo'jaobod (590,9 mlrd. so'm), Asaka (536,5 mlrd. so'm) va Oltinko'l (489,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 5 852,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 146,9 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 720,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 48,3 % ga o'sdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 3 132,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 46,9 % oshdi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 824,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

5,7%

615,8 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

94,1 %

10 209,1 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 10 209,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	10 824,9	110,2
Andijon sh.	3 873,8	115,3
Xonobod sh.	93,0	111,3
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	282,5	104,5
Andijon	624,6	79,5
Baliqchi	644,7	110,8
Bo'ston	61,7	107,6
Buloqboshi	135,0	113,3
Jalaquduq	68,1	102,9
Izboskan	335,5	110,4
Ulug'nor	124,2	111,5
Qo'rg'ontepa	226,3	114,8
Asaka	286,8	120,9
Marhamat	90,6	124,0
Shahrixon	899,0	111,5
Paxtaobod	137,0	111,6
Xo'jaobod	3 873,8	115,3

2024- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 716 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 685 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xonobod shahri (17,5 m.), Marhamat (2,4 m.) va Shahrixon (3,7 m.), tumanlarida kuzatildi.